

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Qo'l yozma huquqida

UDK: 43 4 494 322 o'zb. – 4

OMANOV SHUHRAT G'ANIYEVICH

**Zamonaviy nemis tilidagi modal yuklamalarning
o'zbek tilida berilishi**

5A120201 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar :

f.f.n. dotsent **Shokirova N.Yu.**

Toshkent 2014

MINISTERIUM FÜR HOCH- UND FACHSCHULBILDUNG
DER REPUBLIK USBEKISTAN

NATIONALE UNIVERSITÄT USBEKISTANS

Als Manuskript gedruckt.

UDK: 43 4 494 322 uzb – 4

OMANOV SHUHRAT G'ANIEVICH

**Modalpartikel in der deutschen Sprache der Gegenwart und
ihre Wiedergabe im Usbekischen**

5A120201 – Übersetzungstheorie und Praxis

Dissertation

zur Erlangung des akademischen Grades des Magisters

Wissenschaftliche Betreuerin:
Doktor der phil. Wissenschaften
Dozentin Shokirova N. **Yu.**

Tashkent 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Fakultet: Xorijiy filologiya
Kafedra: nemis folologiyasi
O'quv yili: 2013-2014

Magistratura talabasi: Omanov Sh.G'
Ilimiy rahbar: f.f.n. dots. Shokirova N.Yu.
Mutaxassislik: 5A120201 – Tarjima
nazariyasi va amaliyoti.

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarblilgi: modallik va modal partikellar xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar keng amalga oshirilmoqda. Bu haqida ko'plab tadqiqot ishlari, maqolalar, kitoblar e'lon qilinmoqda

Ishning maqsad va vazifalari: nemis va o'zbek tillarida modallik kategoriyasining ifodalanishi o'rganish; nemis tili modal partikellari funksiyalarini va nemis tili og'zaki nutqida ma'noviy guruhlarini o'rganish; o'zbek tilida ifodalanishini tadqiq qilish; *“denn”*, *“ja”*, *“eigentlich”*ni o'zbek tilida berilish imkonlarini o'rganish;

Tadqiqot obyekti va predmeti: nemis tilidagi modal partikellar ma'nosi obyekt, *“ja”*, *“denn”*, *“eigentlich”*, modal partikellarini o'zbek tilida ifodalash predmeti.

Tadqiqot uslubi va uslublari: qiyosiy-tipologik, analiz va sintez, transformation, struktural-semantik, funksional tahlil;

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: bu nemis tilidagi modal partikellarni o'zbek tilida ifodalash bo'yicha birinchi dissertatsiya bo'lib, modal partikellar badiiy adabiyot namunalari asosida o'rganilgan. O'zbek tilida ekvivalentlari berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: badiiy asarlar tarjimalarida, nemis va o'zbek tillarini o'qitish jarayonlarida qo'llanadi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: ish kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yhati va ilovadan tashkil topgan.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: OTMlarda uyushtirilgan konferensiyalarda maqolalar e'lon qilindi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi: “ja” modal partikeli o‘zbek tilida ko‘pincha *-ku, -da, -gin* qo‘shimchalari, “axir” yuklamasi, undov so‘zlar bilan; “denn” modal partikeli *ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalai, “o‘zi”, “bo‘lmasa”* so‘zi, “xo‘sh” yuklamasi, so‘roq-taaajjub yuklamalari, “ekan” to‘liqsiz fe‘li bilan; “eigentlich” modal partikeli “o‘zi”, “aslida”, “aytgancha”, “ha, aytganday”,

Ilmiy rahbar

f.f.n. dots. Shokirova N.Yu

Magistratura talabasi

Omanov Shuhrat

REPUBLIC OF UZBEKISTAN

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

Faculty: foreign languages

Chair: Germany philology

Years of study: 2013-2014

Student of master’s degree: Omanov Sh.G

Scientific supervisor: Shakirova N.Yu.

Specialty:5A120201- the Theory and Practice of Translate.

ANNATATOIN OF MASTER DISSERTATION ABOUT

“Expression modal particles in modern German language into Uzbek”

Actuality of research: The research is conditional on rise of research the modal particles and they are reflections on research works about modal particles. It published many collections and research works about particles whir other discourse words.

Functions and purposes of research work: Study the expression of the modal category German and Uzbek languages in which either means. The study functions of modal particles and their subclasses in German oral speech. Investigate transferred in Uzbek language and semantic definition of modal particles. Determine the appropriate Uzbek particles for *denn, ja, eigentlich*..

Object and subjekt of research: Object of work is the semantic of German language’s modal particles. Subject – modal particles “*denn*”, “*ja*”, “*eigentlich*” transferred in Uzbek language.

Methods and Methodology of research: comparative-typology, Analysis and Synthesis, transformation, structural-semantic, functional analysis.

Relation level scientific novelty of experiment results: this work first dissertation expression modal particle in modern German language in to Uzbek language. Three modal Particles were studied in literature works at German language. In dissertation were defined equivalents in Uzbek language.

Practical Significance of experiment results and deployment: the results of research will use in branch of translation and for the teaching of Usbek and German languages.

Research Structure and Composition: the master thesis consists of introduction, three chapters, conclusions, List of references, Application.

Mainly results of the research: Articles notified on collections of universities.

Conclusions and proposals: short review : “Ja” modal particle in Uzbek language used with suffixes *-ku,-da, -gin* and with word “*axir*”, Interjektion; “**denn**” modal particle with verbs and words as -“*o’zi*”, “*xo’sh*”, “*bo’lmasa*”, “*ekan*”, interrogative particle”; “**eigentlich**” modal particle with words - “*aslida*”, “*o’zi*” “*aytgancha*”, “*ha, aytganday*”.

Scientific Supervisor:

Shakirova N.Y.

Student of Master’s Degree

Omanov Sh. G’

**Ўзбекистон Миллий университети хорижий филология факультети
немис филологияси кафедрасининг 18-сонли мажлиси баённомасидан**

К Ў Ч И Р М А

08.05.2014 й.

Тошкент ш.

Қатнашдилар: Кафедранинг барча ўқитувчилари, магистрлар.

Кун тартиби: МД хомаки ҳимояси.

ЭШИТИЛДИ:

Кафедра мудири Тян Н.В. Омонов Шухрат магистрлик диссертацияси мавзуси “Замонавий немис тилидаги модал юкламаларнинг ўзбек тилида берилиши” эканлигини, унга немис филологияси кафедраси ўқитувчиси Ф.ф.н., доц. Шокирова Н.Ю. илмий раҳбарлик қилаётганлигини, ички тақризчи ф.ф.н., доц. в.б. Туракулова С.Т. ва ташқи тақризчи эса ф.ф.н., доц. Исмоилов Ю.Н.лар этиб тайинланганлигини маълум қилди.

ТИНГЛАНДИ:

Магистрант Омонов Шухратнинг ҳимоя жараёнида диссертация долзарблигини, аҳамиятини, объектини, қўлланилган методларни ва ишнинг уч боблари хусусиятини гапирди. Магистрант ўз магистрлик диссертациясининг моҳиятини техник воситалар ёрдамида очиб берди.

ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИНДИ:

1. Омонов Шухратнинг “Замонавий немис тилидаги модал юкламаларнинг ўзбек тилида берилиши” мавзусидаги магистрлик диссертацияси ёзилиши бўйича ҳисоботи қабул қилинсин.
2. Омонов Шухратнинг магистрлик диссертацияси ҳимояга қўйилсин.

Кафедра мудири

Тян Н.В.

Котиба

Нишонова Н.М.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti nemis filologiyasi kafedrası tarjima nazariyasi va amaliyoti mutaxassisligi magistratura talabasi Omanov Shuhratning “Zamonaviy nemis tilidagi modal yuklamalarning o'zbek tilida berilishi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar

XULOSASI

Sh.G'.Omanov tomonidan “Zamonaviy nemis tilidagi modal yuklamalarning o'zbek tilida berilishi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi o'z ichiga kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Mazkur ishda lingvistik modallik kategoriyasi, har ikkala tildagi yuklamalar tadqiqoti, nemis tilidagi modal yuklamalar guruhi, ularni tildagi vazifalari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Nemis tilida o'ta faol ishlatiladigan modal yuklamalar – **ja, denn, eigentlich** larning xususiyatlari o'rganilib, shu ma'lumotlarga tayanilgan holda bu yuklamalarni o'zbek tilida berilish imkoniyatlarini nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlardagi misollar asosida ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, maqsad va vazifalari, metodologik asoslari, nazariy va ilmiy ahamiyati, tadbiqui yoritib berilgan. Yurtimizdagi ta'lim sohasidagi islohotlar, xususan xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan katta e'tibor tufayli zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish bilan birgalikda endilikda yoshlarimiz bir nechta xorijiy tillarni o'rganib, bemalol shu tillarda muloqotga kirishmoqda. Bu muloqot jarayonida zarur bo'ladigan vositalardan biri og'zaki nutqdagi emotsionallikni ta'minlovchi muhim til birligi – *yuklamar* beqiyos ahamiyatga ega. Bugunga kelib xorijiy tillaridan bevosita tarjima qilinayotgan badiiy asarlar tarjimalari sifatini yaxshilash uchun ham mana shunday qiyosiy grammatik tadqiqotlar tayanch vazifasini o'taydi.

Magistrlik dissertatsiyasi birinchi bobida tilshunoslikdagi modallik kategoriyasi, uning tilshunoslikda, jumladan, o'zbek va nemis tilshunosligida modallik kategoriyasini o'rganilishi, modallikni har ikkala tilda ifodalashga xizmat qiladigan lingvistik birliklar, bu sohada jiddiy tadqiqotlar o'tkazgan olimlar haqida atroflicha umumiy ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi bobda nemis tilida yuklamalarni o'rganilish tarixi, germanist olimlar tomonidan klassifikatsiya qilinishi, yuklamalarning ma'noviy guruhlariga bo'linishi, olimlarning yuklamalar klassifikatsiyasi bo'yicha nuqtai nazarlari ko'rsatib o'tilgan. Shu bobning ikkinchi qismida o'zbek tilida yuklamalar, ularning

ma'noviy guruhlarga ajratilishi, yuklamalarning og'zaki nutqda anglatadigan ma'nolari tilshunos olimlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarga tayangan holda ochib berilgan.

Magistrlik dissertatsiyaning uchinchi bobida nemis tilidagi eng ko'p qo'llaniladigan 3 ta modal yuklama - **ja, denn, eigentlich** ning gap turlariga va vaziyatiga ko'ra ifodalaydigan ma'nolari haqida bir qator manbalardan olingan nazariy ma'lumotlar berilgan, shu nazariy asoslarga tayangan holda bevosita tarjima qilingan ikkita roman: Bruno Apitsning "Nackt unter dem Wölfen"- "Qashqirlar changalida" romani Yanglish Egamova tarjimasi va Elke Haydenrayx va Bernd Shroderning "Alte Liebe" – "Azaliy ishq" romanining X.Qo'chqorova va F.Soatov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarida shu yuklamalarni o'zbekcha qaysi vositalar bilan qayta tiklanayotgani tahlil qilingan. Ushbu bobda yana bugun uchun dolzarb ahamiyat kasb etayotgan badiiy asarlar tarjimalari tanqidchiligi sohasiga ham murojaat etilgan.

Ushbu ishning nazariy qismlarini yoritishda germanistlardan H.Weydt, M.Thurmair, G.Helbig, U.Engel, A.Krivososov, W.Admoni, H.Weinrich, S.Vural, S.Orlova, C.May va boshqa germanistlarning ilmiy asarlari, dissertatsiyalaridan, o'zbek tilidagi yuklamalar bo'yicha esa N.Kononov, G'.Abdurahmonov, U.Rahimov, D.O'rinboyeva, O'.Lafasov, Z.Isoqov va boshqalarning asarlari va dissertatsiyalaridan unumli foydalanilgan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi sohadagi birinchi jiddiy tadqiqot bo'lib, qator ijobiy tomonlarga ega bo'lishi bilan birga ayrim kamchiliklardan ham xoli emas.

1. Modallik kategoriyasi ustidagi tadqiqotlarning dunyo tilshunosligida, shu qatorda nemis va o'zbek tilshunoligida bugungi ahvoli, so'ngi yillardagi, ya'ni yaqin o'n yil ichidagi ishlar haqida kengroq to'xtalib o'tilganda birinchi bob ancha mazmunliroq bo'lardi.
2. Modal yuklamalar haqida nemis tilidagi tadqiqotlar bilan birgalikda uni boshqa chet tillarda berilishi to'grisidagi ishlar biroz kengroq va aniqroq berilganda ish mavzusi va yo'nalishiga ancha mosroq bo'lib, ular tajribasidan qanchalik unumli foydalanilgani ko'zga tashlanardi.
3. Tahlil uchun tanlangan misollarni ko'rib chiqish davomida modal yuklamalarni nemischa matni bilan o'zbekcha tarjima solishtirilganda ayrim misollarning qo'llangan vaziyati haqidagi ma'lumotlar berilmasdan ketilgan, agar mana shu informatsiya ham to'liq bo'lganda ish bilan tanishganlar amalga oshirilgan tahlil natijalari va berilgan tavsiyalarni yanada aniqroq anglab olishiga yordam bo'lardi.
4. Ishda ayrim orfografik xatolar ham mavjud.

Ko'rsatilgan bu kamchiliklar juz'iy xarakterga ega bo'lib, tadqiqot ishining mazmun va mohiyatiga unchalik ta'sir qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur magistrlik dissertatsiyasi tilshunoslik; tarjima nazariyasi va amaliyoti ixtisosligiga mos keladi. Bu ishning muallifi esa magistr akademik ilmiy darajasini olishga loyiq.

Ilmiy rahbar,

O'z MU Xorijiy filologiya fakulteti nemis filologiyasi

kafedrasi dostenti, filologiya fanlari nomzodi

Shakirova Natalya Yusupovna

Zamonaviy nemis tilidagi modal yuklamalarning o'zbek tilida berilishi

Mundarija:

Kirish	4
I.Bob. Modallik kategoriyasi haqida	9
1.1. Modallik kategoriyasining tilshunoslikda o'rganilishi.....	9
1.1.1.Modallik kategoriyasining tildagi ahamiyati.....	9
1.1.2. Modallik sohasidagi dastlabki tadqiqotlar va uning keyingi rivoji.....	12
1.1.3. Modallik kognitiv lingvistikaning bir tadqiqot ob'yekti sifatida.....	13
1.1.4. Modallik kategoriyasining nemis lingvistlari tomonidan o'rganilishi.....	14
1.1.5. Modallik kategoriyasining o'zbek lingvistlari tomonidan o'rganilishi.....	16
1.2. Nemis tilida modallik kategoriyasining ifodalanishi.....	17
1.2.1. Modalverben–modal fe'llar.....	17
1.2.2. Konjunktiv – konyunktiv shakli.....	22
1.2.3. Futur I und Futur II.–kelasi zamon shakllari.....	23
1.2.4. Haben/sein+Infinitiv konstruksiyalari.....	23
1.2.5 .Modalwörter – modal so'zlar.....	24
1.3. O'zbek tilida modallik kategoriyasining ifodalanishi.....	27
1.3.1. Modal so'zlar.....	28
1.3.2. To'liqsiz fe'llar.....	31
1.3.3. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari.....	31
1.3.4. Mayl qo'shimchalari.....	32
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	33

II bob. Nemis tilshunosligida partikellar bo'yicha tadqiqotlar va o'zbek tilshunosligida yuklamalarning o'rganilishi.....	34
2.1.Nemis tilida partikellaar.....	34
2.1.1. Nemis tilida partikellar tadqiqoti.....	36
2.1.1.1. Gradpartikel.....	43
2.1.2. O'zbek tilidagi yuklamalar tadqiqoti.....	46
2.1.2.1. O'zbek tilidagi yuklamalarning og'zaki nutqdagi ahamiyati.....	52
2.2. Nemis tilidagi modal partikellar.....	57
2.2.1. Nemis tilida modal partikellarning o'rganilishi.....	57
2.2.2. Modal partikellarning grammatik xususiyatlari to'g'risida.....	63
2.2.2.1. Sintaktik xususiyatlari.....	63
2.2.2.2. Morfologik xususiyatlari.....	65
2.2.3. Modal partikellarning semantik-pragmatik xususiyatlari.....	68
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	70
III bob. Nemis tilidagi ja, denn, eigentlich - modal partikellarining o'zbek tilida berilishi.....	72
3.1 Badiiy asarlar tarjimalarida lingvistik tahlil.....	72
3.2. Nemis tilida „ja“ partikeli.....	74
3.2.1. „Ja“ modal partikel sifatida.....	74
3.2.1.1. „ja“ in Aussagesatz – darak-xabar mazmunidagi gaplarda.....	75
3.2.1.2. „ja“ in Fragesatz – so'roq mazmunidagi gaplarda.....	80
3.2.1.3 „ja“ in Aufforderungssätzen – taklif-maslahat mazmunidagi gaplarda.....	81
3.2.1.4. „ja“ in Ausrufesätzen – undov gaplarda.....	81
3.3. Nemis tilida „denn“ modal partikeli.....	83
3.3.1. „denn“ in Ergänzungsfragesätzen – so'roq so'zli so'roq gaplarda.....	84
3.3.2. „denn“ in Entscheidungsfragesätzen – so'roq so'zsiz so'roq gaplarda.....	90

3.3.3. Ausrufesätze in Form Entscheidungsfragen – so’roq so’zsiz so’roq gap shaklidagi undov gaplarda.....	94
3.4. Nemis tilida „eigentlich“ modal partikeli.....	95
3.4.1. „eigentlich“ in Aussagesätzen – darak gaplarda.....	96
3.4.2. „eigentlich“ in Fragesätzen - so’roq gaplarda.....	98
Uchinchi bob bo’yicha xulosalar.....	103
Xulosa.....	106
Zusammenfassung.....	109
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	113
Ilova.....	119

Kirish

Asrlar davomida tili boshqa-boshqa, yashayotgan makonlari bir-biridan olis, madaniyatlar, urf-odatlar, turmush tarzi va boshqa shunga o’xshagan belgilar o’zaro farqlanuvchi xalqlar bunday to’siqlar doirasida chegaralanib qolib ketmasdan bir-biri bilan doimiy aloqada bo’lib kelgan; tillar, madaniyat-u odatlar kabi o’ziga xosliklar bir-biriga ta’sir etib kelgan va shu asnoda biri ikkinchisini boyitib kelgan. Bu jarayonda muhim vositalardan biri, hech shubhasiz, til va tarjima hisoblanadi. Bu jarayonda turkiy tillar, shu jumladan, ushbu turkumga mansub o’zbek tili ham chetda qolib ketmagan, doimiy o’zgarishlar va boyishlar bilan taraqqiy etib kelgan, o’z navbatida boshqa tillarga ham ta’sir etgan yoki ona tilimizda yaratilgan asarlar boshqa tillarga tarjima qilinib kelingan. Ammo mamlakatimiz mustaqillikni qo’lga kiritgandan so’ng bu yo’nalishdagi ishlar yangi pog’onaga ko’trildi, xorijiy mamlakatlar bilan bevosita aloqalar yo’lga qo’yildi, turli sohalarda xorijliklar bilan aloqalar o’rnatildi. Endilikda bir nechta xorijiy tillarni bilish zaruriyatga aylandi, bu sohada bir qancha dasturlar ishlab chiqildi, xatto O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2013-yil dekabr oyida ta’lim sohasida xorijiy tillarni o’qitishni kuchaytirish bo’yicha Farmoni ham e’lon qilindi, sohaga e’tibor yanada kuchaydi. Shu bilan birga dunyoning turli tillarida yaratilgan asarlarni ona tilimizga bevosita tarjima qilish, o’z navbatida, o’zbek adabiyotining durdonalarini xorij tillariga tarjima qilib, dunyoga Vatanimizni, xalqimizni butun borlig’ini ko’z-ko’z qilib, o’zimizni namoyon qilishimiz bo’lmoqda. Bu xayrli ishlar, birinchi navbatda, xorijiy tillar bilan ona tilimizni qiyosiy tahlili asosidagi chuqur tadqiqotlarni talab qiladi. Mazkur tadqiqot ishida ham ushbu ehtiyojni hisobga olgan holda nemis tilidagi modal partikellardan eng ko’p qo’llaniladigan uchta tanlab olinib, mavjud tadqiqotlarga tayangan holda

badiiy asarlardan olingan misollar tahlili asosida o'zbek tilida ularni qayta berish imkonlarini ko'rsatishga harakat qilindi.

Tadqiqotning dolzarbligi, keyingi yillarda tilga kommunikativ-pragmatik asosda yondashish va tilni shu nuqtai nazardan o'rganish jarayoni boshlandi. Bu jarayonda og'zaki nutqning muhim qismi hisoblanadigan partikel va yuklamalarning o'rnini muhim deb topilib ular ustidagi tadqiqotlar keng amalga oshirilmoqda, chunki ular o'zi paydo bo'lgan tilning milliy-madaniy belgilari bo'yicha eng ko'p informatsiya saqlaydigan lingvistik birliklar hisoblanadi. Nemis tilidagi bunday til birliklarini o'zbek tilida ifodlash imkonlari aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar bugun uchun zarur, chunki muloqot jarayonida turli modal munosabatlar ham ifodalanib, qo'shimcha informatsiyalar anglashiladi. Shu bilan birga badiiy asarlar tarjimalarida lingvistik normalarga qanchalik amal qilinganini tahlil qilib chiqish orqali unga tanqidiy yondashuvni ham shakllantirish, umuman badiiy asarlar tarjima tanqidchiligini rivojlantirish zaruriyatga aylandi. Bu bilan tarjima sifati oshadi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va yutuqlar aniqlanadi, keyingi ishlar uchun asos yaratilib beriladi. Bu ishlarni samarali yo'lga quyish va shu sohadagi tadqiqotlar muhim dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot obyekti va predmeti. nemis tilidagi *denn, ja, eigentlich* modal partikellarining gap turiga, kommunikativ maqsadga hamda situatsiyasiga bog'liq holda ahglatadigan semantikasi va o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarda qaysi vositalar bilan ifodalanganligini tadqiq qilib o'rganib chiqish va tavsiyalar ishlab chiqish obyekti qilib olindi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

- modallik kategoriyasining o'zbek va nemis tillarida qaysi vositalar yordamida ifodalanishini bilan atroflicha tanishib chiqish;
- nemis tilidagi partikellar bo'yicha tadqiqotlar bilan keng va to'laroq tanishish;
- lingvistikadagi yangi yo'nalishlar – kommunikativ-pragmatik lingvistika, matn lingvistikasi, kognitiv lingvistika, etnolingvistika asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o'zbek tilida yuklamalar va ularni og'zaki nutqning muhim qismi sifatida o'rganish bo'yicha mavjud tadqiqotlar bilan tanishib chiqish;
- badiiy asarlar tarjimalarida lingvistik normalarga amal qilinishi bo'yicha tahlillar o'tkazish hamda tadqiqot mavzusi bo'yicha MPLarni o'zbek tilida qaysi vositalar bilan ifodalanayotgani o'rganish;

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda qo'yidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda:

- nemis tilidagi modallik kategoriyasini o'zbek tilida ifodalash imkoniyatlarini ko'rsatib berish;
- nemis tilidagi partikellar va o'zbek tilidagi yuklamalarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib berish;
- tarjimalardan olingan misollarda MPlarning gap turiga va vaziyatiga qarab ifodalayotgan ma'nolari o'zbekcha tarjimada qanday shaklda qayta tiklanganini yoki ifodalanilmasdan ketilgani ko'rsatib berish;
- mavjud ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, olimlarning ilmiy xulosalari, lug'atlardagi ma'lumotlarga hamda o'tkazilgan tahlillarga asoslanib *denn*, *ja*, *eigentlich* MPlarining o'zbek tilida ifodalashning aniqroq va qulay usullarini aniqlash;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotda modallik kategoriyasi, nemis tilidagi va o'zbek tilida yuklamalar tadqiqoti bo'yicha ilmiy manbalar bilan tanishib chiqish, badiiy asarlar tarjimasini lingvistik me'yorlarga qay darajada amal qilingani nuqtai nazardan tahlil qilish, nemis tilida faol qo'llaniluvchi uchta yuklama - **“ja”**, **“denn”**, **“eigentlich”**ni badiiy asarlar tarjimalaridan olingan misollar asosida ko'rib chiqish va o'zbek tilida ifodalab berish imkonlarini o'rganib chiqish asosiy masala qilib olindi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. A.Krivososov, H.Weydt, G.Helbig, M.Thurmair, U. Engel, H.Weinrich, S.Vural, Kwon Min Joe, W.Koller, G'.Abdurahmonov, O' Lafasov, D.O'rinboeva, U.Raximov, Sh.Safarov, S.V.Orlovalarning kitoblari, dissertatsiyalarida va boshqa ko'pgina manbalarda bu sohani yoritib berishga xizmat qiladigan chuqur ilmiy xulosalar berilgan.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fanni rivojlantirish, uning dolzarb muammolarini ilmiy tahlil etish to'g'risidagi asarlari, A.Krivososov, H.Weydt, G.Helbig, M.Thurmair, U.Engel, H.Weinrich, S.Vural, Kwon Min Joe, W.Koller, G.Abdurahmonov, O.'Lafasov, D.O'rinboeva, Sh. Safarovlarning nazariy mulohazalari tadqiqot uchun metodologik asos qilib olindi

Mavzuni yoritishda qiyosiy tipologik, analiz va sintez, transformatsion, strukturaviy-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: nemis tilidan amalga oshadigan navbatdagi tarjimalarda MPlarning aniqroq va to'g'riroq

ifodalanishiga xizmat qiladi, nemis tilida muloqotga kirishish jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro muloqotlarda emotsionallik, informativlik, umuman so'zlovchining aytilayotgan gapga nisbatan o'z munosabatini ifodalashga xizmat qiladigan eng muhim vositalardan biri – Mplarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali xorijiy tillarni o'rganishni yaxshilash uchun amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi quyidagilarda ko'rinadi:

- nemis tilidagi MPlarni o'zbek tilida qaysi vositalar bilan ifodalash imkoniyatlari mavjudligi bo'yicha biror bir yirik hajmdagi tadqiqot (magistrlik, nomzodlik yoki doktorlik) ishlari amalga oshirilmaganligi, mazkur tadqiqot bu boradagi dastlabki qadamlardan biri ekanligi.
- tadqiqotda nemis tilidan bevosita o'girilgan badiiy asarlar tarjimasida lingvistik normalarga qanchalik amal qilinishini MPlar misolida tahlil qilib chiqilib, tarjima matnida grammatik kategoriyalarning qayta tiklanishi ustida kuzatishlar olib borildi.

Ish tuzilishi va tarkibi: Dissertatsiya kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati, foydalanilgan lug'atlar hamda ilovadan tashkil topgan.

Dissertatsiyaning asosiy qismi 3 bobdan iborat bo'lib, ularning qisqacha mazmuni qo'yidagicha:

Birinchi bobda modallik tushunchasining tilshunoslikda o'rganilishi, nemis va o'zbek tillarida o'rganilishi, ushbu tillarda modallik kategoriyasining ifodalashga xizmat qiladigan til birliklari haqida izlanishlar olib borilgan va ularni mazkur bobda umumlashtirishga harakat qilindi.

Ikkinchi bobda nemis tilidagi partikelllar, ular ustidagi tadqiqotlar, olimlar tomonidan klassifikatsiya qilinishdagi farqli jihatlar, ularning semantik va grammatik xususiyatlari, partikellar tizimida MPlarning tutgan o'rni, MPlarning o'rganilishi, semantik-pragmatik xususiyatlari, o'zbek tilida yuklamalar haqida tadqiqotlar, o'zbek tilida o'g'zaki nutqning tadqiq etilishi, MPlar va yuklamalarning lingvistikada muhim lingvokulturologik aspekt sifatida o'rganish zarurligi va boshqa muhim jihatlar to'g'risida gap boradi.

Uchinchi bobda esa eng muhim jarayon, ya'ni tahlil boshlanadi. Tadqiqot predmeti sanaladigan *denn, ja, eigentlich* MPlarining semantik, sintaktik, pragmatik xususiyatlarini o'rganib chiqish, olimlarning tadqiqotlaridan samarali

foydalangan holda yig'ilgan misollarni to'g'ri tahlil qilish, tahlilda har bir MPning gap turiga, o'zi qo'llangan gap vaziyati va kommunikativ maqsadigaiga mosligiga, boshqa MPlar bilan kombinatsiyalanish xususiyatiga e'tibor qilingan holda tarjimada qaysi vositalar bilan ifodalanganligini tekshirildi. Albatta bu jarayonda har bir taklif yoki tuzatish, qo'lga kiritilgan natija mavjud ilmiy manbalarga asoslanib baholandi.

I.Bob. Modallik kategoriyasi haqida

1.1. Modallik kategoriyasining tilshunoslikda o'rganilishi

1.1.1.Modallik kategoriyasining tildagi ahamiyati

1.1.2. Modallik sohasidagi dastlabki tadqiqotlar va uning keyingi rivoji

1.1.3. Modallik kognitiv lingvistikaning bir tadqiqot ob'yekti sifatida

1.1.4. Modallik kategoriyasining nemis lingvistlari tomonidan o'rganilishi

1.1.5. Modallik kategoriyasining o'zbek lingvistlari tomonidan o'rganilishi

1.2. Nemis tilida modallik kategoriyasining ifodalanishi

1.2.1. Modalverben – modal fe'llar

1.2.2. Konjunktiv – konyunktiv shakli

1.2.3. Futur I und Futur II.–.kelasi zamon shakllari

1.2.4. Haben/sein+Infinitiv konstruksiyalari

1.2.5 .Modalwörter – modal so'zlar

1.3. O'zbek tilida modallik kategoriyasining ifodalanishi

1.3.1. Modal so'zlar

1.3.2. To'liqsiz fe'llar

1.3.3. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari

1.3.4. Mayl qo'shimchalari

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Birinchi bob bo'yicha xulosalar:

Birinchidan, modallik kategoriyasi logikada paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, lingvistika ham uni o'rganadi, chinki bu tushunchalari til yordamida

ifodalanadi. Demak til o'zidagi modallik kategoriyasini ifodalab beruvchi vositalarni bir-biridan farqli va umumiy jihatlarini ham namoyon etadi;

Ikkinchidan, modallik kategoriyasi og'zaki nutqda yuzaga chiqqanda turli-tuman paralingvistik vositalar bilan ham ifodalanish imkoniga ega;

Uchinchidan, modallik nutqqa qo'shimcha ma'no o'ttenkasi yuklash uchun xizmat qilib, gapning quruq informatsiya beruvchilikdan saqlaydi. Modallik yana gap mazmuniga qo'shimcha informatsiya kiritadi;

To'rtinchidan, modallik kategoriyasiga e'tibor tilga nisbatan faqat struktural-semantik nuqtai nazar bilangina qarash emas, balki kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan ham qarash boshlangandan so'ng yangi pog'onaga ko'tarildi, jumladan, kognitiv tilshunoslik uchun muhim tadqiqot obyektiga aylandi;

Beshinchidan, modallik kategoriyasining qoidalari umumiy bo'lsa-da, tillarda modallik ifodalovchilar har-xil, jumladan, nemis va o'zbek tillarida ham. Nemis tilidagi modallik anglatgan biror so'zni o'zbek tilidagi huddi shu turkumdagi so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Shu bilan birga umumiy jihatlar ham mavjud bo'lib, ular tilni qiyoslab o'rganishda, tarjimada katta imkoniyatlar beradi.

II bob. Nemis tilshunosligida partikellar bo'yicha tadqiqotlar va o'zbek tilshunosligida yuklamalarning o'rganilishi

2.1. Nemis tilida partikellaar

2.1.1. Nemis tilida partikellar tadqiqoti

2.1.1.1. Gradpartikel

2.1.2. O'zbek tilidagi yuklamalar tadqiqoti

2.1.2.1. O'zbek tilidagi yuklamalarning og'zaki nutqdagi ahamiyati

2.2. Nemis tilidagi modal partikellar

2.2.1. Nemis tilida modal partikellarning o'rganilishi

2.2.2. Modal partikellarning grammatik xususiyatlari to'g'risida

2.2.2.1. Sintaktik xususiyatlari

2.2.2.2. Morfologik xususiyatlari

2.2.3. Modal partikellarning semantik-pragmatik xususiyatlari

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Birinchidan, tilshunoslikda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab til o'zaro muloqotlarda qanday vazifalarni bajarayotgani, qanday ma'nolar anglatayotgani haqidagi tadqiqotlar boshlandi, endi faqatgina biror so'roqqa javob bo'ladigan, atash ma'nosiga va gapda biror gap bo'lagi vazifasida keladigan so'zlar, umuman leksik va grammatik ma'noga ega so'zlarnigina emas, balki kommunikativ jarayonga faol ishtirok eta oladigan va turli ma'nolar anglatadigan har bir so'z e'tiborda bo'lib keldi.

Ikkinchidan, germanistikada ahamiyatsiz, bor-yo'gi og'zaki nutqning elementi sanaladigan partikellar ustidagi ikkita tadqiqot busoha rivojiga turtki bo'ldi, hali hamon bu sohani o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar davom etib kelyapti.

Uchinchidan, germanistikada "partikel" atamasi ostida bir qancha o'zgarmaydigan so'zlar guruhi birlashtirilib o'rganilayaptiki, bu narsa ushbu atamani o'zbek tiliga "yuklama" deb tarjima qilib olib qo'llayverish xato ekanligini ko'rsatmoqda. Umuman, lingvistik atamalarni ham o'zbekcha ekvivalentlarini qo'llashda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur.

To'rtinchidan, o'zbek tilidagi yuklamalar guruhi ham huddi nemis tilidagi partikellar singari, asosan, og'zaki nutqqa xos bo'lib, tuli modal ma'nolarni ifodalab keladi. Ammo ular ustidagi mavjud tadqiqotlar bu so'zlar guruhi xususiyatlarini to'laligicha ochib bera olmaganligini tadqiqotchilar e'tirof etishgan, chunki ko'p hollarda ular rus tili nuqtai nazaridan o'rganilgan, aslida ular mutlaqo milliy-madaniy xarakterdagi til birliklari bo'lib, uni faqatgina o'sha til ona tili bo'lganlarga his etib bila oladi, ya'ni yuklamalar fenomenal tadqiqotlarni talab qiladi. Yana ular struktural-semantik nuqtai nazardan o'rganilib kelingan.

Beshinchidan, tilning boshqa birliklari singari o'zbek tilidagi yuklamalar yoki shunga o'xshash birliklarni boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganish zarurki, ana shundagina tilning imkoniyatlari to'laroq yuzaga chiqadi, masalan, 1969-yildagi H.Weydtning tadqiqoti ham nemis tilidagi modal so'zlarning fransuz tilidagi mos keluvchi ekvivalentlari, ifodalab berish imkonlari haqida edi. Olim tilni qiyosiy o'rganish natijasida nemis tilini "**partikelreich**"(partikelga boy) deb baho berdi, chunki tadqiqot davomida nemis tili og'zaki nutqida mavjud imkoniyatlarni anglab yetdi va ishida ko'rsatib berdi. Huddi shu davrlarda partikellarga munosabat qanday bo'lganini bilgan holda aytish mumkinki, bu ish juda katta xodisa edi. Shundan

keyin sohaga qiziqish ortib, tadqiqotlar boshlanib ketdi va hamon bu ishlar susuyamasdan kelmoqda.

O'zbek tilida ham hali tadqiqini kutib yotgan til birliklaridan biri – bu yuklamalar bo'lib, ularni o'rganib chiqish birinchidan o'zbek tilining imkoniyatlarini to'liqroq ochib bersa, ikkinchidan ona tilimizni boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganuvchilarga va badiiy asarlar tarjimalari bilan shug'ullanuvchilarga ilmiy asos bo'lib xizmat qilar edi.

III bob. Nemis tilidagi *ja, denn, eigentlich* - modal partikellarining o'zbek tilida berilishi

3.1 Badiiy asarlar tarjimalarida lingvistik tahlil

3.2. Nemis tilida „ja“ partikeli

3.2.1. „Ja“ modal partikel sifatida

3.2.1.1. „ja“ in Aussagesatz – darak-xabar mazmunidagi gaplarda

3.2.1.2. „ja“ in Fragesatz – so'roq mazminidagi gaplarda

3.2.1.3 „ja“ in Aufforderungssätzen – taklif-maslahat mazmunidagi gaplarda

3.2.1.4. „ja“ in Ausrufesätzen – undov gaplarda

3.3. Nemis tilida „denn“ modal partikeli

3.3.1. „denn“ in Ergänzungsfragesätzen – so'roq so'zli so'roq gaplarda

3.3.2. „denn“ in Entscheidungsfragesätzen – so'roq so'zsiz so'roq gaplarda

3.3.3. Ausrufesätze in Form Entscheidungsfragen – so'roq so'zsiz so'roq gap shaklidagi undov gaplarda

3.4. Nemis tilida „eigentlich“ modal partikeli

3.4.3. „eigentlich“ in Aussagesätzen – darak gaplarda

3.4.4. „eigentlich“ in Fragesätzen - so'roq gaplarda

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.

Birinchidan, badiiy asarlar tarjimasini yaxshilash, tarjimonlarga, umuman til o'rganuvchilarga asosli ilmiy manbalarni yaratib berish uchun o'zbek tili bilan

boshqa tillarni, shu jumladan, nemis tili bilan ham keng miqyosda qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarini o'tkazib, asosli ilmiy xulosalar ishlab chiqish zarur. Bu xulosalarga tayanilgan holda amalga oshirilgan badiiy asarlar tarjimalarida estetik, stilistik me'yorlar bilan birgalikda, eng muhimi lingvistik me'yorlarni berilishini ham tahlil qilib chiqish shart. Bu, avvalo, kim tarjimada nimalarga erishgani-yu, qaysi tarjimonda kamchiliklarga yo'l qo'yilganini aniqlab baho berish uchun zarur.

Ikkinchidan, tarjima tanqidchiligi bu amalga oshirilgan tarjimalardagi kamchilik va yutuqlarni tahlil qilib xulosa chiqarishga, keyingi ishlarda bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka turtki bo'ladi. Eng muhimi, **obyektiv** tanqid tarjimonni o'sishiga sabab bo'ladi, har kim ham "tarjimonman" deb og'iz ko'pirtirmaydigan bo'ladi, soha ancha joyiga tushib, munosiblar ajralib chiqadi, qachonki faqat va faqat obyektiv tanqidga erishilganda.

Uchinchidan, nemis tilidagi "**ja**" partikeli ko'p funksiyali so'z bo'lib, gap tarkibida **Gesprächspartikel** – gap qismlarini o'zaro bog'lash va gap orasida bo'sh qolayotgan o'rinlarni to'ldirish kabi vazifalarda; **Antwortpartikel** – savol-javobni shakllantirish vazifasida; **Gradpartikel** – mazmun darajasi kam yoki ko'pligini ko'rsatadigan vazifada; **Modalpartikel** – gap tarkibida so'zlovchining o'z munosabatini anglatish vazifalarida keladi. Modal partikel vazifasida kelganda yana gap turiga qarab ham turli ma'no anglatib keladi. Darak, xabar mazmuni ifodalangan gaplarda mazmun hammaga tushunarli, anglash oson va hech ikkilanmasdan uni to'g'ri deb topish zarurligini bildirib keladi, „**ja**“ o'zbek tilida - **ku**, **-da** yuklamasi, "**shubhasiz**" modal so'zi va kiritmalar bilan ifodalanadi. "Aufforderungssatz" - buyruq-istak, maslahat mazmunidagi gaplarda so'zlovchining tinglovchiga biror narsani zudlik bilan bajarishini, tinglovchining ham so'zsiz buysinishini ifodalaydi. O'zbek tilida - **gin** subyektiv munosabat ifodalovchi yuklama va undov so'zlar bilan ifodalanadi. "Ausrufesatz" - hayrat, ajablanish va his-hayajon mazmunli gaplarda so'zlovchi umuman kutilmagan narsadan ajablanishini ifodalaydi. O'zbek tilida - **ku** yuklamasi, his-hayajon undovlari, to'liqsiz fe'l va - **a** yuklamasi bilan ifodalanadi. "Fragesatz" – so'roq gapda "**auch**" partikeli bilan birgalikda kelib, tinglovchidan berilgan so'roqqa ijobiy javob, tasdiqni kutadi. O'zbek tilida gap tarkibidagi "aniq", "chindan ham" kabi so'zlar va kesim tarkibidagi - **a** so'roq yuklamasi bilan ifodalash imkoniyatlari mavjud.

To'rtinchidan, nemis tilidagi "denn" modal partikeli ham ko'p funksiyali bo'lib, modal partikel vazifasida faqat so'roq gaplarda keladi. Boshqa partikellar - **eigentlich**, **jetzt** va boshqalar bilan kombinatsiyalashib turli emotsiyalarni ifodalaydi. So'roq gaplarning har ikkala turida qatnashadi va har birida o'ziga xos

ma'no anglatadi. **“Ergänzungsfragesatz”** - so'roq so'zli so'roq gaplarda a) do'stona munosabat yoki biror narsani aniqlash uchun qo'llanganda o'zbek tilida ifodalanmasdan qoldirilishi mumkin; b) do'q, ta'na, gina ma'nolarini ifodalaganda “o'zi” so'zidan, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan foydalaniladi; d) so'zlovchi bergan savoliga inkor javobni olgach, mazmunni aniqlashtirish uchun qo'llanilib o'zbek tilida “bo'lmasa”, “u holda”, “unaqada” so'zlari bilan; e) so'zlovchi tinglovchidan biror narsani so'rganda qo'llanib tinglovchidan javob berishi zarurligini ifodalaydi “o'zi” so'zi, “xo'sh” yuklamasi, kesim tarkibiga to'liqsiz fe'l “ekan” so'zini yoki **-mi, -a** so'roq yuklamalarini qo'shish bilan; ritorik so'roq gaplarda ham yuqoridagi vositalar va gar oxirida “ekan-da” birikmasini keltirish bilan. **“Entscheidungsfragesatz”** – so'roq so'zsiz so'roq gaplarda ko'pincha ritorik so'roq gap tarkibida keladi va huddi yuqoridagi vositalar bilan va “nahotki” yuklamasi, norozilik, ta'na-dashnom mazmunini anglatganda “nima balo” va shunga o'xshagan kirish birikmalar bilan ifodalanadi.

Beshinchidan, nemis tilidagi “eigentlich” modal partikeli boshqa partikellardan farqli ravishda o'ta darajada nemis tiliga xos so'z bo'lib, bu so'zni tarjimada ifodalash ham ancha murakkablik to'g'diradi. Germanistlardan ayrimlari bu partikel faqat so'roq gaplarda qo'llanadi deishsa, ayrimlar ham darak, ham so'roq gapda qo'llanadi deyishgan. Darak gaplarda “chuqurroq nazar tashlanganda” “kengroq e'tibor qaratilsa” ma'nosini beradi va o'zbek tiliga “aslida”, “o'ylab qaragam” kirish so'z va kirish birikmalar hamda “o'zi” so'zi bilan ifodalanadi. So'roq gapda esa gap yo'nalishini o'zgartirish, suhbatga yangi mavzu kiritish uchun qo'llanadi. O'zbek tiliga “aytgancha” “aslida”, “rostini aytganda”, “o'ylab qaralsa” “o'zi” so'z va kiritmalari bilan berilish imkoni mavjud;

Xulosa.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash davomida tilshunoslikning turli sohalariga oid ilmiy ishlar, adabiyotlar, ilmiy maqolalar va boshqa manbalarga duch kelib, ularni imkon qadar o'rganishga harakat qildik. Shu asnoda til, murakkab xodisa ekanligi haqidagi fikrlarning to'g'riligiga amin bo'ldik. Tildagi turli xodisalar, xususan, modallik o'ta murakkab kategoriya bo'lib, o'zida katta informatsiyani saqlaydi. Bu xodisani aks ettiruvchi leksik birliklardan biri nemis tilidagi partikel va o'zbek tilidagi yuklamalar bo'lib, har ikkala til uchun ham ahamiyatli so'zlar guruhi sanaladi. Tillarni qiyoslab o'rganilganda esa o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi, ayniqsa, tarjima jarayonida uni ifodalab berish o'ta murakkab bo'lib, katta bilim talab qiladi. Biz o'rganib chiqqanlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, dunyo tilshunosligida modallik kategoriyasini lingvistik asosda chuqurroq o'rganish kengaymoqda, ayniqsa, bu tilga yangicha yondashuv asosida qarala boshlaganidan so'ng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Modallik kognitiv lingvistikaning asosiy o'rganish obyektiga aylandi;

Ikkinchidan, nemis tilida modallik kategoriyasini nemis tilida modal fe'llar, fe'lning kelasi zamon shakli, modallashgan fe'llar, modal so'zlar, modal yuklamalar, modal ravishlar, ayrim predloglarning modal ma'nolari ifodalab beradi.

Uchinchidan, o'zbek tilida modallikni ifodalashga xizmat qiladigan vositalar juda ko'p va xilma xil.

To'rtinchidan, modallik kategoriyasi nazariyasi umumiy bo'lsa-da ularni ifodalovchi vositalar har bir tilda bir-biridan tubdan farq qiladigan holatlar ham mavjud bo'lib, bu holat bizda modallik lingvokulturologik birlik degan xulosaga keldik;

Beshinchidan, nemis tilidagi yuklamalar bilan o'zbek tilidagi yuklamalar klassifikatsiyasi va anglatadigan ma'nolari, eng muhimi, milliy-madaniy xarakterni o'zida saqlovchili lisoniy birliklar hisoblanib, "Partikel" atamasi ostida nemis tilida anglashiladigan so'zlar guruhi bilan o'zbek tilida "yuklama"lar deganda anglashiladigan tushunchalar bir-biridan tubdan farq qiladi;

Oltinchidan, har ikkala tilda ham bu turkumdagi so'zlar og'zaki nutqqa xos so'zlar guruhi bo'lib, og'zaki nutqda turli tuman emotsiyalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan, kommunikaiv-pragmatik informatsiyani o'zida saqlovchi lisoniy birliklardir;

Yettinchidan, nemis tilidagi "ja" modal yuklamasi dark gaplarda "hammaga ma'lumlik", "tez anglab olinadigan", "hech ikkilanmasdan qo'shilish" ma'nolarini anglatadi va o'zbek tildagi matnlarda -ku, -da yuklamalari hamda ravishlar bilan, maslahat-istak mazmunidagi gaplarda so'zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalab, -gin subyektiv munosabat yuklamasi bilan, his-hayajonli gaplarda "hayratlanish"ni ifodalab o'zbek tilida -u, -ku yuklamalari hamda undov so'zlar bilan beriladi;

Sakkizinchidan, nemis tilidagi "denn" modal yuklamasi faqat so'roq gaplarda qo'llanilib, "do'stona savol", "eshitgan gapini aniqlashtirish", "achchiqlanish", "ta'na, dashnom" kabi emotsiyalarni ifodalab, o'zbek tiliga so'roq yuklamalari, "o'zi" so'zi, "axir" kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi, "xo'sh", "nahotki"

yuklamalari, kesim tarkibidagi to'liqsiz fe'llar, "bo'lmasa", "unaqada", "u holda" birikmalari, undov so'zlar va boshqalar bilan beriladi;

To'qqizinchidan, "eigentlich" modal yuklama sifatida darak va so'roq gaplarda qatnashadi. Bu modal partikel o'ta darajada milliy xarakterga ega bo'lib, darak gaplarda "chuqurroq nazar tashlanganda" ma'nosini beradi, so'roq gapda "gap yo'nalishini o'zgartirish" maqsadida qo'llaniladi. Bu yuklama o'zbek tiliga "aslida", "rostini aytganda", "o'ylab qaralsa", "aytgancha", "o'zi" so'z va kiritmalari bilan berilish imkoni mavjud;

O'ninchidan, badiiy asarlar tarjimasida stilistik, estetik va lingvistik me'yorlarni qanday qayta tiklab berilgani, tarjimon tomonidan erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tarjima tanqidchiligi nuqtai nazaridan tekshirib tahlil qilib chiqib, tavsiya va takliflar ishlab chiqish nafaqat soha rivoji, balki qiyosiy tilshunoslik metodlari asosida olib borilgan tadqiqotlar ona tilimizning unchalik e'tibor qilinmasdan qoldirib ketilayotgan birliklarini ham tildagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi degan xulosaga keldik.

Zusammenfassung

Das Thema der Masterarbeit "**Ausdruck der Modalpartikeln in der modernen Deutsch ins Usbekisch**". Die Partikeluntersuchungen sind eine der wichtigste Forschungsbereich im Deutsch. Diese Forschungen begannen im Mitte des XX Jahrhundert im Rahmen kommunikative-pragmatische Linguistik. Die grundlegende Arbeiten waren Forschungen von Krivonosov(1963) und H.Weydt(1969). Nach solche Arbeiten begann die "plötzliche Blüte der Partikelforschung", weitete sich in einem dermaßen großen Umfang aus, dass die Partikelforschung mittlerweile kaum noch überschaubar. Die Partikellinguistik (Henne 1979) oder Partikologie (Weydt 1981) wird von Weydt in zwei Phasen unterteilt, die erste Phase, die im Bereich des Strukturalismus bzw. der Transformationsgrammatik anzusideln ist, und die zweite Phase, in der die Untersuchungen durch die "kommunikative-pragmatische Wende" in der Linguistik sprechakttheoretisch bzw. konversationsanalytisch orientiert sind. So sind die Partikeln, wie Weydt es ausdrückt, ein Brennpunkt verschidener Methoden geworden, in dem sich viele Ansätze sammeln und an denen sie auch erprobt werden können.

Modalpartikeln sind solche Partikeln, die die Stellung des Sprechers zum Gesagten ausdrücken, sich nicht auf einzelne Satzglieder, sondern auf das Prädikat und damit auf den gesamten Satz beziehen, deren Funktionen sehr

unterschiedlicher Art sind und nicht primär auf semantischer, sondern auf kommunikativer Ebene liegen. Auf Grund dieser Funktionen sind die meisten Modalpartikeln auf bestimmte Satzarten (Aussage-,Aufforderungs-, Fragesatz) festgelegt und über diese Satzarten an bestimmte Intentionen bzw. Sprechhandlungen(z.B. Aufforderungs-, Fragehandlung, Wunsch, Drohung) gebunden. Die zentrale Gruppe der Modalpartikeln (z.B. *aber, auch, bloß, denn, doch, eben, etwa, halt, ja, mal, nur, schon, vielleicht*) ist nicht erststellenfähig und hat Homonyme in anderen Wortklassen.

In dieser Arbeit versuchte ich die Übersetzungen zu analysieren und die Entsprechungen drei deutsche Modalpartikeln ins Usbekisch zu bestimmen. Diese Masterarbeit besteht aus Einleitung, drei Kapiteln, Zusammenfassung, Literaturverzeichnis, Beilage.

Aktualität der Masterarbeit. In den letzten Jahren stehen untersuchende linguistische Forschungen, die ausdrückende linguistische Einheiten sind, von Modalität und die modale Bedeutung an dem wichtigsten Plan. Besonders im Rahmen kommunikativ-pragmatische Linguistik, wie Kognitivlinguistik, Pragmalinguistik. Über diese Einheiten wurden viele Forschungen, Bücher, Artikeln veröffentlicht. In dieser Arbeit beschäftigt man mit verschiedenen Eigenschaften der deutschen Modalpartikeln, Kontrastive Analyse im Vergleich mit anderen Sprachen.

Ziel der Arbeit ist linguistische Analyse der Übersetzung und die Feststellung der Wiedergabemöglichkeiten von drei deutschen Modalpartikeln „ja“, „denn“, „eigentlich“ ins Usbekisch.

Aufgaben der Arbeit sind folgende:

Erstens - Allgemeine Informationen über Partikeln sammeln und mit Forschungen über die Partikeln besichtigen, mit Usbekisch vergleichen;

Zweitens - die Bedeutung von einigen deutschen Modalpartikeln analysieren und die entsprechende Äquivalenzen bestimmen;

Drittens - Übersetzungsmöglichkeiten der Modalpartikeln feststellen und ihre usbekische Entsprechungen bestimmen.(nach den Modalpartikeln von Belegmaterialen);

Objekt der Arbeit sind deutsche Modalpartikeln, ihre Ausdruck ins Usbekisch nach Übersetzung deutsche Romanen „Nackt unter dem Wölfen“ von B.Apits, „Alte Liebe“ von E.Heidenreich, B.Schroder.

Gegenstand der Arbeit sind die Modalpartikel „denn“, „ja“, „eigentlich“ und ihre usbekische Entsprechungen.

Wissenschaftliche Neuheit der Arbeit ist deutsche Modalpartikel „ja“, „denn“, „eigentlich“ und ihre usbekischen Entsprechungen wurden aufgrund der aus Übersetzung genommenen Muster analysiert.

Methoden der Arbeit sind Beschreibungsmethod, Transformationsmethod, Analyse und Synthese, struktural-semantische Methoden

Struktur der Arbeit: Im ersten Kapitel wird die Kategorie der Modalität im Deutsch und im Usbekisch betrachtet.

Im zweiten Kapitel wurden Forschungsgeschichte und Klassifikation der Partikelsystem der deutschen Sprache und Usbekisch, Modalpartikeln der gegenwartige deutsche Sprache, die Rolle der Wortgruppe „yuklama“ im Usbekisch betrachtet.

Im dritten Kapitel wurde über die Rolle der Übersetzungskritik, der Wiedergabe der deutschen Modalpartikeln „ja“, „denn“ und „eigentlich“ im Usbekisch gewidmet. Es wurde hier die Analyse von Übersetzungen gemacht und einige Rekomendationen gegeben.

Nach der Analyse wurde es klar, dass das Modalpartikel „ja“ im usbekischen mit den Suffixen *-ku*, *-gin*, *-da*, mit dem Wort (*yuklama*) „*axir*“, Modalwort „*maʼlumki*“, „*bilamizki*“ und mit Interjektionen wiedergegeben wurden.

Das Modalpartikel „denn“ wurde im Usbekisch mit Verben, das Wort „*oʻzi*“, „*boʻlmasa*“, Partikel „*xoʻsh*“, Fragepartikeln, wie *-a*, *-mi*, das Verb „*ekan*“ „*aytchi*“ widergegeben.

Das Modalpartikel „eigentlich“ wurde mit dem Wort „*oʻzi*“, „*aslida*“, „*aytgancha*“, „*ha*, *aytganday*“ widergegeben.

Manchmal kommt es vor, dass Partikeln durch ein bestimmtes Wort nicht übersetzt sind, sondern die durch die Partikel geäußerte Modalität durch den ganzen usbekischen Satz ausgedrückt wird. Meistens kann man die Bedetung des Partikel mit Situation und andere Wörter bestimmen

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 1875 sonli Qarori. Xalq so'zi 2012-yil 10-dekabr.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

III. Ilmiy adabiyotlar

1. Admoni W. Теоретическая грамматика немецкого языка. Москва: Просвещение 1986
2. Bergman R, Pauly P, Stricker S.: Einführung in die Sprachwissenschaft.- Heidelberg. 2001.
3. Bussman,H. Lexikon der Sprachwissenschaft. –Stuttgart: Alfred Kroner Verlag, 2002.
4. DUDEN die Grammatik. Band 4. Mannheim. Leipzig.Wein. Zürich. 2008
5. Engel U. Deutsche Grammatik – Neubearbeitung-. München: IUDICIUM Verlag, 2004.
6. Eisenberg P. Der Satz. Grundriss der deutschen Grammatik.- Weimar.: 2006
7. Glück H. Metzler Lexikon Sprache. –Stuttgart: 2006.
8. Helbig G, Buscha J. Deutsche Grammatik .Ein Handbuch für Ausländer Unterricht. Berlin: „Langenscheidt“ 2001.
9. Hadumond B.Lexikon der Sprachwissenschaft.-Stuttgart: Alfred Kroener Verlag 2002.
10. Helbig G. LEXIKON der deutschen Partikeln. VEB Verlag Enzyklopadie Leipzig: 1988.
11. Hentschel E./Weydt H. Handbuch der deutschen Grammatik. -Berlin-New York: Walter de Gruyter, 2008, 3.Aufgabe.
12. Karimov Sh. Nemis adabiyoti tarixi.-Toshkent.: Mumtoz so'z 2010.
13. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. -Wieblsheim: 2001.
14. Lochtmann K. Die soziolinguistische Kompetenz bei DaF-Lernenden und die Rolle der Modalpartikeln.-Brüssel: 2013

15. Muhr R. Zur Didaktik der modalpartikel im Unterricht Deutsch als Fremdsprache. Sprechen mit Partikeln. 1988.
16. Nurmonov A va boshqalar. Modallik kategoriyasini ifodalashga doir. –T.: O’qituvchi, 1992.
17. Rasulov R. O’zbek tilida yordamchi so’zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. Toshkent. Fan 1983.
18. Roemer Ch. Morphologie der deutschen Sprache. A. Franck Verlag, 2006.
19. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. -Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006.
20. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -Toshkent.: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
21. Shakirova N.Y. Nemis tilidagi modal fe’llar. –Toshkent: Tafakkur, 2010.
22. Sirojiddinov Sh., G. Odilova. Badiiy tarjima asoslari. -Toshkent.: Mumtoz so’z 2011.
23. Stolze R. Übersetzungstheorien. Eine Einführung. -Tübingen: Gunter Narr Verlag. 2008.
24. Thurmair M. Modalpartikeln und ihre Kombination. Tübingen: Max Heuber Verlag 1989.
25. Weydt H. Abtönungspartikel. Die deutschen Modalpartikeln und ihre französischen Entsprechungen. Bad Homburg/Berlin/Zürich: 1969.
26. Weinrich H. Textgrammatik der deutschen Sprache. Hildesheim/Zyurich/New York: Georg Olms Verlag, 2007
27. Werner Abram. Dikurspartikel zwischen Modalität, Modus, und Fremdbewusstsein. -München: 2009.
28. Weydt H./ Hentschel E. Handbuch der deutschen Grammatik. Berlin. de Gruyter Verlag 2008.
29. Wörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Berlin/New York. de Gruyter Verlag 2000.
30. O’zbek tilining Akademik grammatikasi. 1-tom: - Toshkent: Fan, 1975

IV. Dissertatsiya, avtoreferat va ilmiy maqolalar

1. Aguado K. Dimensionen lernersprachlicher Partikelverwendung. Sprachsystematische, kognitiv-induelle und interaktiv-soziale Aspekte beim Gebrauch und beim Erwerb des Deutsch als Fremdsprache. Doktor.diss. Blifeld 1996.
2. Brembs G. Dialektische Elemente in deutscher und schwedischer Literatur und ihre Übersetzung. Doktor.disser. Stockholm: 2004.
3. Bozorov O. О частицы узбекском языке. Дисс. к. ф. н. Москва: 1982

4. Drittman J. „Auch“ und „denn“ als Abtönungspartikel. Zugleich ein wissenschaftlergeschichtlicher Beitrag. Zeitschrift für germanistische Linguistik. Freiburg:
5. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida o'rganish. Avtoreferat, f.f.n. Toshkent: 1999.
6. Isoqov Z. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati. Unda yuklamalarning tutgan o'rni. Mnografiya. Qo'qon: 2011.
7. Kwon M.J. Modalpartikeln und Satzmodus Untersuchungen zur Syntax, Semantik und Pragmatik der Deutschen Modalpartikeln. Dokt.diss. München: 2005.
8. Lafasov.O'.P. Dialogik nutqda sub'ektiv modallikning ifodalanishi. - f.f.n. diss. – Toshkent:1994.
9. May C. Die Deutschen Modalpartikeln.Wie übersetzt man sie (dargestellt am Beispiel von EIGENTLICH, DENN und ÜBERHAUPT), wie lehrt man sie? Doktor. diss.- Bonn: 2000.
10. Pollet J. Modalpartikeln in Internetdiskussionen: eine empirische studie mit den Darstellungsmodellen von Thurmair und Langacker. Doktor.diss. Leuven 2006.
11. Raximov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. f.f.n. diss. Samarqand: 1994.
12. Turdiboev T. O'zbek tilida yordamchi so'zlar konversiyasi. f.f.n. diss. Toshkent: 1996.
13. Vural S. Partikelgebrauch im heutigen Deutsch und heutigen Türkisch. Eine Kontrastive Untersuchung. – doktor diss. - Ludvigshafen am Rhein: 2000.
14. Werner Anjelika. Die Modalpartikeln im Kontrast zum Japanischen-Deutschen. Im Rahmen eines Wortartensystemvergleich. Doktor.diss.1998
15. Yakubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanish xususiyatlari. Filologiya fan.dokt.diss. Toshkent: 2006
16. O'rinboyeva D. O'zbek so'zlashuv nutqida o'zgarmaydigan so'zlar (Yordamchi so'zlar) – f.f.n.diss, Samarqand:1994.
17. Colomo Katarina. Modalität im Verbalkomplex. Halbmodalverben und Modalitätsverben im System statusregierender Verbklassen. Dokror, diss. Bochum: 2010.
18. Заикин А.Е. Коммуникативно-прагматические функции немецких модальных частиц. Автореф. к.ф.н. Москва: 1985.
19. Кокорина С.В. Модальная частицы как прагмемы в систем речи. На материале литературных диалогов современного немецкого языка. Барнаул: 2002.

20. Овчинникова Т.Е. Пространственная метафора в семантике модальных дейксического происхождения. Автореферат к.ф.н. Москва: 2009.
21. Орлова С.В. Сопоставительный анализ семантики немецких частиц *denn*, *doch* и *ja* их русских переводных “эквивалентов”. Автореферат к.ф.н. Москва: 2012.
22. Соколова М.Е. Функционально-семантические специфика немецких модальных частиц как маркеров пресуппозиционного дейксиса. Автореферат кандидат фил. наук. Волгоград: 2006.

V. Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Dreyer H, Schmidt R. Lehr- und Übungsbuch der deutschen Grammatik.- München: Verlag für Deutsch, 2009.
2. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
3. Mirsoatov T. Z. Deutsche Grammatik.- Toshkent: O'qituvchi, 1987.
4. Salomov G'. Tarjima nayarizasiga kirish.- T.: 1978.
5. Saidov S., Zikrillaev F. Nemis tili grammatikasi. Toshkent: 1973

VI. Foydalanilgan badiiy adabiyotlar ro'yxati.

1. Elke H./Bernd Sch.. Alte Liebe. Mtinchen. Carl Hanser Verlag, Roman.- München: 2009.
2. Goethe J.W. Die Leiden des jungen Werthers.- Berlin: DTV Verlag, 1962.
3. Gyote Yo.W. Yosh Verterning iztiroblari. - Toshkent: Yangi asr avlod, 2006.
4. Heidenreich Elke. Schroeder Bernd. Azaliy ishq. Roman. Tarjimonlar Qo'chqorova H., Soatov F. – Toshkent: Nihol, 2013.
5. Hesse H. Cho'l bo'risi. Akbarov M. tarjimasi.-Toshkent: Sharq, 2006
6. Olmon nasridan namunalar. Imyaminova Sh. tarjimalari. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.

VII. Foydalanilgan lug'atlar ro'yxati.

1. Nemischa-uzbekcha grammatik atamalar izog'li lugati. –Toshkent.: 1992.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati I,II,III, IV, V tom. -Toshkent.: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” 2008.
3. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. – Berlin/München/Wien/Zürich/NewYork.: Langenschiedt, 2010.
4. 10 .Wörterbuch Deutsch als Fremdsprache.- Berlin/New York.:“de Gryuter Verlag“ 2000.
5. Großwörterbuch Deutsch-Russisch mit Ergänzung.-Москва: Рус.яз.-Медиа 2008.
6. Русско -узбекский словарь. I,II том.-Toshkent.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2013.

VIII. Foydalanilgan internet saytlar ro'yxati.

1. [http\\ www.google.de\\osterreichische literatur\\](http://www.google.de/osterreichische-literatur/) Hesse H. Steppenwolf.
2. [http\\ www.ziyo.net](http://www.ziyo.net). Kutubxona\\ tilshunoslik\\ Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent: 2000.
3. [http\\ www.ziyo.net.uz.\\tilshunoslik\\A.Nurmonov](http://www.ziyo.net.uz/tilshunoslik/A.Nurmonov). O'zbek tilining nazariy grammatikasi.
4. [http\\www.google.ru\\ бесплатная диссертация](http://www.google.ru/бесплатная-диссертация).